



UDK:1(5):123.1

Nilufar TEMIROVA,
Guliston davlat universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail: temirovanilufar545@gmail.com

Guliston davlat pedagogika instituti, PhD A.Mansurov taqrizi asosida

CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE PHENOMENA OF ALIENATION AND LONELINESS IN EASTERN PHILOSOPHY

Annotation

This article analyzes the conceptual foundations of alienation and loneliness through the prism of the distinctive features of Eastern philosophical thought. The concept of alienation is revealed not only as a socio-political process but also through ontological interpretations of human detachment from his own essence and absolute existence. The study comparatively examines the concepts of “uzlat” and “khilwat” in Islamic philosophy, particularly Sufism, as well as the constructive and destructive aspects of loneliness in Far Eastern teachings. The article concludes that the models of self-awareness and overcoming alienation through “inner solitude” in Eastern philosophy possess methodological significance in resolving existential crises in the modern world.

Key words: Eastern philosophy, alienation, loneliness, phenomenon, ontology, Sufism, khilwat, existential crisis, self-awareness, spiritual perfection, human essence.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНОВ ОТЧУЖДЕНИЯ И ОДИНОЧЕСТВА В ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация

В данной статье анализируются концептуальные основы отчуждения и одиночества через призму отличительных черт восточной философской мысли. Концепция отчуждения раскрывается не только как социально-политический процесс, но и через онтологические интерпретации отрыва человека от собственной сущности и абсолютного бытия. В исследовании проводится сравнительное изучение понятий «изоляция» («узлат») и «соединение» («хилват») в исламской философии, в частности в суфизме, а также конструктивных и деструктивных аспектов одиночества в дальневосточных учениях. В заключении статьи обосновывается, что модели самопознания и преодоления отчуждения через «внутреннее одиночество» в восточной философии имеют методологическое значение в решении экзистенциальных кризисов в современном мире.

Ключевые слова: Восточная философия, отчуждение, одиночество, феномен, онтология, суфизм, хилват, экзистенциальный кризис, самопознание, духовное совершенствование, человеческая сущность.

SHARQ FALSAFASIDA BEGONALASHUV HAMDA YOLG‘IZLIK FENOMENLARINING KONSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sharq falsafiy tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari prizmasidan begonalashuv va yolg‘izlik fenomenlarining konseptual asoslari tahlil qilinadi. Begonalashuv tushunchasini nafaqat ijtimoiy-siyosiy jarayon, balki insonning o‘z mohiyati va mutloq borliqdan uzilishi sifatidagi ontologik talqinlari ochib beriladi. Tadqiqotda islom falsafasi, xususan, tasavvufdagi “uzlat”, “xilvat” tushunchalari hamda uzoq Sharq ta’limotlaridagi yolg‘izlikning konstruktiv va destruktiv jihatlari qiyosiy o‘rganiladi. Maqolaning xulosasida Sharq falsafasidagi “ichki yolg‘izlik” orqali o‘z-o‘zini anglash va begonalashuvni bartaraf etish modellari zamonaviy dunyodagi ekzistensial inqirozlarni hal qilishda metodologik ahamiyatga ega ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Sharq falsafasi, begonalashuv, yolg‘izlik, fenomen, ontologiya, tasavvuf, xilvat, ekzistensial inqiroz, o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy kamolot, inson mohiyati.

Kirish. Globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida insoniyat misli ko‘rilmagan darajadagi “kommunikativ yolg‘izlik” va “ijtimoiy begonalashuv” muammosiga duch kelmoqda. Garchi begonalashuv tushunchasi klassik G‘arb falsafasida (Gegel, Marks, Xaydegger, Sartr) keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ushbu fenomenning Sharqona talqinlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Zero, Sharq falsafasi insonni jamiyatning bir bo‘lagi sifatidagina emas, balki koinot bilan metafizik bog‘liqlikda bo‘lgan murakkab mikrokosm sifatida ko‘radi.

G‘arb ratsionalizmidagi begonalashuv ko‘pincha fojiviy va ijtimoiy inqiroz sifatida talqin etilsa, Sharq falsafiy an‘analarida yolg‘izlik fenomeniga ijobiy, ya‘ni shaxsning o‘z “Men”iga qaytishi va Haqni anglashi uchun zaruriy bosqich sifatida qaralgan. Masalan, islom falsafasidagi “begonalashuv” – bu insonning o‘z ruhidan va Yaratuvchidan uzoqlashishi deb

tushuniladi. Tasavvufdagi “xalvat dar anjuman” (odamlar ichida bo‘la turib, dilda yolg‘iz (Haq bilan) bo‘lish) tamoyili bugungi kunning shovqinli va begonalashgan jamiyatida insonning ruhiy muvozanatini saqlash uchun muhim metodologik vositadir.

Sharq falsafasidagi begonalashuv va yolg‘izlik fenomenlarining konseptual farqlari va o‘xshashliklarini tahlil qilish orqali, inson o‘zini anglash yo‘lida ushbu holatlardan qanday foydalanishi mumkinligini falsafiy jihatdan asoslashdan iborat. Shuningdek, tadqiqotda Sharqiy va G‘arbiy yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar — ya‘ni, yolg‘izlikning “ijtimoiy mahkumlik” emas, balki “ma’naviy erkinlik” sifatidagi talqinlari ochib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq falsafasida begonalashuv muammosiga G‘arbdagidan farqli yondashuv

mavjud. Sharq mutafakkirlari ko'proq insonning ichki dunyosiga, uning ma'naviy rivojlanishiga e'tibor qaratadilar.

Konfutsiy jamiyatda uyg'unlik va tartibni saqlashga qaratilgan axloqiy ta'limotlarni targ'ib qilgan. Uning fikricha, inson jamiyatning bir qismi sifatida o'zini anglashi va jamiyat manfaatlarini uchun xizmat qilishi kerak.

Begonalashuv Konfutsiy ta'limotida jamiyatdagi uyg'unlikning buzilishi sifatida ko'rilishi mumkin. Inson jamiyatdan uzoqlashsa, u o'z o'rnini yo'qotadi va ma'naviy krizisga duch keladi. Konfutsiy jamiyatda insonparvarlik, adolat, odob va donishmandlik kabi qadriyatlarni targ'ib qilgan. Ushbu qadriyatlar begonalashuvga qarshi kurash vositasi sifatida xizmat qiladi. Konfutsiy ta'limotida insonning jamiyatdagi roli, ijtimoiy mas'uliyati va burchlari alohida ahamiyatga ega. Konfutsiyning "Lun Yuy" ("Suhbatlar va mulohazalar") asarida jamiyatda uyg'unlik va tartibni saqlash uchun zarur bo'lgan axloqiy prinsiplar bayon etilgan. Insonparvarlik tushunchasi, Konfutsiy nazarida, boshqalarga nisbatan hurmat, e'tibor va g'amxo'rlikni anglatadi. Adolat esa jamiyatda haqqoniylik va tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Odob ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar va marosimlarni o'z ichiga oladi. Donishmandlik esa haqiqatni anglash va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Lao-szi - Szi Dao ta'limotiga asoslangan bo'lib, butun borliqning asosi bo'lgan tabiiy yo'ldir. Inson Daoga muvofiq yashashi kerak. Lao-szining fikricha, begonalashuvning sababi - tabiiy yo'ldan uzoqlashish, sun'iylik va zo'ravonlikdir. Inson tabiat bilan uyg'unlikda yashasa, u o'z mohiyatini anglaydi va begonalashuvdan xalos bo'ladi. Lao-szining "Dao De Szin" ("Dao va fazilat kitobi") asarida Dao (道) - butun borliqning asosi, tabiiy qonuniyat va haqiqat sifatida talqin etiladi. Lao-szi insonni tabiat bilan uyg'unlikda yashashga, oddiy hayot kechirishga va zo'ravonlikdan qochishga chaqiradi. Daodan uzoqlashish, sun'iylikka intilish va tabiatga qarshi harakat qilish begonalashuvga olib keladi.

Jaloliddin Rumi yoshni insonning ilohiy mohiyatiga qaytish vositasi sifatida ko'radi. Ishq orqali inson o'zini va boshqalarni anglaydi va begonalashuvdan xalos bo'ladi. Rumi ta'limotida insonning qalbi - bu ilohiy ishqning manbaidir. Inson o'z qalbini tozalasa, u ilohiy ishqni his qiladi va butun borliq bilan birlashadi. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarida ishq insonning ma'naviy kamoloti va begonalashuvdan xalos bo'lishining asosiy vositasi sifatida talqin etiladi. Rumi ta'limotiga ko'ra, ishq insonni ilohiy manbaga bog'laydi, uning qalbini tozalaydi va o'zini anglashga yordam beradi. Begonalashuv esa ishqning yetishmasligi, qalbning qorayishi va ilohiy manbadan uzoqlashish oqibatida yuzaga keladi.

Al-Forobiy fozil jamiyat g'oyasini ilgari surgan, unda insonlar o'zaro yordamlashib, ezgu maqsadlarga erishadilar. Begonalashuv bunday jamiyatning ziddidir. Forobiyning fikricha, fozil jamiyatda adolat, tenglik va o'zaro hurmat hukm suradi. Insonlar o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar va jamiyat manfaatlarini uchun xizmat qiladilar. Al-Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida "fozil jamiyat - insonlar o'zaro yordamlashib, birgalikda ezgu maqsadlarga erishadigan, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan jamiyatdir". Forobiy begonalashuvni fozil jamiyatning ziddi sifatida ko'radi. Fozil jamiyatda insonlar o'z qobiliyatlarini rivojlantirib, jamiyat manfaatlarini uchun xizmat qiladilar, bu esa ularning jamiyat bilan birlashuviga va begonalashuvdan xalos bo'lishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot doirasida Sharq falsafiy an'alarida begonalashuv va yolg'izlik fenomenlarining mohiyatini ochib berish uchun kompleks va tizimli metodologik yondashuvlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, qiyosiy-tarixiy tahlil metodi orqali Konfutsiyning ijtimoiy axloqi, Lao-szining ontologik qarashlari, Forobiyning siyosiy-ratsional g'oyalari va Rumiyning metafizik ishq

ta'limoti turli tarixiy davr va madaniy kontekstlarda yaratilganiga qaramay, ularning begonalashuv muammosiga yondashuvlaridagi umuminsoniy xususiyatlar hamda o'ziga xos milliy-falsafiy jihatlar o'zaro muvofiqlikda tadqiq etildi. Shu bilan birga, tadqiqotning nazariy poydevorini mustahkamlashda germenetik tahlil usuli yetakchi o'rin tutib, unda "Lun Yuy", "Dao De Szin", "Masnaviyi ma'naviy" va "Fozil odamlar shahri" kabi klassik manbalar matnlaridagi ramziy ishoralar, metafizik ma'nolar va terminologik tushunchalar zamonaviy begonalashuv kontekstida qayta talqin qilindi. Dialektik yondashuv metodi inson va jamiyat, ruh va borliq, tabiiylik va sun'iylik o'rtasidagi ziddiyatlarni shunchaki qarama-qarshilik emas, balki begonalashuv fenomenining kelib chiqish manbai hamda uni bartaraf etishning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida qo'llanilgan konseptual modellashirish usuli orqali esa Sharq falsafasidagi begonalashuvni yengish yo'llari "axloqiy uyg'unlik", "tabiiy muvozanat", "ilohiy ishq" va "ijtimoiy hamkorlik" kabi yaxlit tizimli modellar shaklida umumlashtirilib, ularning zamonaviy jamiyatdagi ekzistensial muammolarni hal etishdagi metodologik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijasida Sharq falsafasida begonalashuv muammosi ijtimoiy, tabiiy, ilohiy-ekzistensial va siyosiy-ratsional yo'nalishlar prizmasidan tahlil qilinib, bir qator muhim xulosalarga erishildi. Xususan, Konfutsiy ta'limoti kontekstida begonalashuv insonning ijtimoiy burch va axloqiy mezonlardan uzoqlashishi natijasida yuzaga keladigan "ijtimoiy uzilish" fenomenidir, deb baholanadi. Bunda insonparvarlik va odob tamoyillari shaxsni jamiyat bilan qayta birlashtiruvchi o'ziga xos "ijtimoiy yelim" vazifasini o'tashi, natijada begonalashuvga qarshi kurashning konfutsiycha modeli shaxsiy qadriyatlarni ijtimoiy ierarxiya bilan uyg'unlashtirish orqali insonning jamiyatdagi o'rnini qayta tiklashga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur ijtimoiy yondashuvdan farqli o'laroq, Daosizm ontologiyasida begonalashuv insonning o'z asliga, ya'ni tabiiy yo'l — Dao fenomeniga begona bo'lishi sifatida talqin etiladi. Lao-szi falsafasiga ko'ra, begonalashuvning tub sababi tamaddun yaratgan sun'iylik va zo'ravonlik cheklovlari bo'lib, inson faqat tabiat bilan uyg'unlashish hamda tabiiy harakat tamoyiliga tayanish orqali o'zligini anglashi mumkin; binobarin, bu tizimda yolg'izlik fojia emas, balki asliga qaytish uchun zarur bo'lgan "metafizik sukunat" sifatida ijobiy mazmun kasb etadi. Insonning o'z mohiyatiga qaytishi masalasi Jaloliddin Rumi ta'limotida yanada chuqur ekzistensial bosqichga ko'tarilib, begonalashuv ruhning o'z ilohiy manbaidan ajralishi va moddiy dunyo bandisiga aylanishi deb tushuniladi. Rumiyning "Ney nidosi" ramzida aks etgan ushbu ayriqlik va g'urbat tuyg'usi faqatgina "Ishq" tushunchasi orqali bartaraf etilishi mumkin bo'lgan universal kuch bo'lib, inson qalbini nafsdan tozalash orqali Yaratuvchi va butun borliq bilan birdamlikka erishadi hamda begonalashuvni qalbning metafizik transformatsiyasi orqali yengib o'tadi. Ushbu ma'naviy jarayonlar Abu Nasr al-Forobiy falsafasida ratsional va siyosiy tizim darajasida tahlil qilinib, begonalashuv ijtimoiy tuzilmaning buzilishi va fozillikdan uzoqlashish oqibati sifatida ko'rsatiladi. Forobiy ilgari surgan "Fozil odamlar shahri" konsepsiyasi begonalashuvga qarshi o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy dori bo'lib, undagi o'zaro yordam va adolat tamoyillari insonning jamiyat ichida o'zini yolg'iz his qilmasligini ta'minlaydi; binobarin, begonalashuv nodonlik va adolatsizlik hukmron bo'lgan johil jamiyatning mahsuli ekanligi, unga qarshi kurash esa ratsional hamkorlik va axloqiy kamolot orqali amalga oshirilishi tadqiqot natijalarining yakuniy xulosasi sifatida asoslanadi.

Xulosa va takliflar. "Sharq falsafasida begonalashuv hamda yolg'izlik fenomenlarining konseptual tahlili" shuni ko'rsatadiki, mazkur muammolar Sharq mutafakkirlari

merosida shunchaki ijtimoiy yoki psixologik inqiroz emas, balki inson mohiyatining asliga qaytishi va o'z-o'zini anglashining dialektik bosqichi sifatida talqin etilgan. Tadqiqot davomida erishilgan xulosalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Birinchiidan, Sharq falsafasida begonalashuv G'arb ratsionalizmidagi kabi fojiviy "yo'qotish" sifatida emas, balki insonning o'z ilohiy, tabiiy yoki axloqiy manbaidan uzoqlashishi, ya'ni "asliga begonalashuv" sifatida tushuniladi. Konfutsiyning axloqiy ierarxiyasi, Lao-szining tabiiy "Dao"si, Rumiyning ilohiy ishq va Forobiyning fozil jamiyati - bularning barchasi begonalashuvni bartaraf etishning o'ziga xos konseptual modellaridir.

Ikkinchiidan, Sharqona tafakkurda yolg'izlik fenomeni ikki yoqlama xarakterga ega. Agar u ijtimoiy uzilish va ma'naviy qashshoqlik natijasi bo'lsa - inqirozli holat, biroq u "uzlat", "xalvat" yoki "ichki sukunat" shaklida bo'lsa - shaxsning o'z ichki "Men"ini topishi va mutloq haqiqat bilan birlashishi uchun zaruriy imkoniyatdir. Sharq falsafasi insonni

tashqi dunyo shovqinidan va sun'iylikdan begonalashish orqali o'zining haqiqiy mohiyatiga yaqinlashishga chorlaydi.

Uchinchiidan, begonalashuvni yengish vositalari Sharq falsafasida ichki transformatsiya bilan bog'liq. Konfutsiyda bu - axloqiy integratsiya, Lao-szida - tabiat bilan ontologik birlashuv, Rumiya - qalbning metafizik poklanishi, Forobiyda esa - ratsional hamkorlikdir. Bu modellar shuni isbotlaydiki, inson jamiyatda o'zligini yo'qotmasligi uchun avvalo o'zining ichki ma'naviy yaxlitligini tiklashi lozim.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Sharq mutafakkirlari taklif etgan begonalashuv va yolg'izlik tahlili zamonaviy dunyodagi ekzistensial inqirozlarni hal qilishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Globallashuv va texnologik begonalashuv sharoitida Sharqning "ichki uyg'unlik" va "ma'naviy birlik" g'oyalari insonning jamiyatdagi barqarorligini ta'minlashda va uni ma'naviy tanazzuldan saqlab qolishda samarali mafkuraviy himoya vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.kitaplar.club/kitap/konfucyus-lun-yu>
2. <https://www.felsefekibi.com/wp-content/uploads/2018/04/Tao-Te-King-Lao-Tzu.pdf>
3. <https://www.mesnevihiqmetleri.com/mesnevi-oku/>
4. <https://www.islamicmanuscripts.info/wp-content/uploads/2019/03/1830.pdf>
5. Erkinovna T. N. The influence of social communications on the formation of alienation and loneliness. – 2023.
6. Erkinovna T. N. The development of sociology and its role in the life of society //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 1320-1323.